



ONA TILI DARSLARIDA LOYIHA ISHLARINI TASHKIL ETISH – TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRUVCHI VOSITA SIFATIDA

Erkaboyeva Nodiraxon Adxamjon qizi

Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumani

5-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Email: erkaboyevhusniddin9@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida loyihaga asoslangan o'qitish metodini joriy etishning maqsadi, mazmuni va bosqichlari yoritilib, ta'lim jarayonida ularni samarali tashkil etishning ilmiy modeli ishlab chiqilgan. Shuningdek, zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv asosida loyiha darslarining afzallik tomonlari, ularning ona tili darslarida tutgan o'rni ilmiy jihatdan asoslab berilgan; uning o'quvchilar ijodiy fikrlashi, muloqot madaniyati va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni chuqur tahlil qilingan. Maqola boshlang'ich ta'lim tizimini rivojlantirish tadqiqotlari doirasida nazariy va amaliy asoslarni chuqur o'rganish uchun ilmiy manba sifatida xizmat qiladi. Shu sababdan, maqolaning mazmuni tilshunoslik, pedagogika va psixologiya sohalari izlanuvchilari, shuningdek, ta'lim jarayonida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: innovatsion yondashuv, loyiha asosidagi o'qitish, loyiha ishi, erkin fikrlash, didaktik model, yo'l boshlovchi, tanqidiy tahlil, hamkorlikda ishlash, kommunikativlik, integrativ o'qitish, o'qituvchi roli, yaratuvchanlik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются цель, содержание и этапы внедрения проектного метода обучения на уроках родного языка в начальной школе, разрабатывается научная модель его эффективной организации в образовательном процессе. Также, на основе современного компетентностного подхода, научно обоснованы преимущества проектного метода обучения и его роль на уроках родного языка, глубоко проанализирована его роль в развитии творческого мышления, культуры общения и социальных компетенций учащихся. Статья служит научным источником для углубленного изучения теоретических и практических основ в рамках исследований по развитию системы начального образования. Поэтому содержание статьи представляет актуальную значимость для исследователей в области лингвистики, педагогики и психологии, а также специалистов, работающих в образовательном процессе.

Ключевые слова: инновационный подход, проектное обучение, проектная работа, свободное мышление, дидактическая модель, руководство, критический анализ, совместная работа, коммуникация, интегративное обучение, роль учителя, креативность.

Abstract. This article examines the purpose, content, and stages of implementing project-based teaching in native language lessons in primary school, and develops a scientific model for its effective implementation in the educational process. Furthermore, using a modern competency-based approach, the advantages

of project-based teaching and its role in native language lessons are scientifically substantiated, and its role in developing students' creative thinking, communication skills, and social competencies is thoroughly analyzed. The article serves as a scientific source for an in-depth study of the theoretical and practical foundations within research on the development of the primary education system. Therefore, the article's content is of current relevance to researchers in the fields of linguistics, pedagogy, and psychology, as well as specialists working in the educational process.

Keywords: innovative approach, project-based learning, project work, free thinking, didactic model, leadership, critical analysis, collaborative work, communication, integrative learning, the role of the teacher, creativity.

Kirish. Bugungi kunda ta'limni modernizatsiya qilish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda o'quvchilarning mustaqil fikrlash salohiyatini shakllantirish O'zbekiston ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Shu nuqtayi nazardan, boshlang'ich ta'limda loyiha asosidagi o'qitish metodini qo'llash alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur yondashuv o'quvchilarning nafaqat bilimini, balki ularning ijodiy, ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlanganidek, boshlang'ich ta'limda erkin fikrlaydigan, ijodkor va jamoada ishlay oladigan shaxsni tarbiyalash zarurati davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishidir. Shu maqsadda darsliklarning yangi avlodi yaratilib, o'qituvchilar faoliyatida Finlandiya, Janubiy Koreya va Yaponiyaning ilg'or tajribalari asosida loyihaviy yondashuvlar keng joriy etilmoqda.

Boshlang'ich sinf ona tili darslari – bu o'quvchilarning nutqiy madaniyatini, mustaqil fikrlashi va muloqot ko'nikmalarini shakllantiruvchi eng asosiy bosqichdir. Aynan shu fanda loyiha darslarini o'tkazish orqali o'quvchi o'zining til imkoniyatlarini amaliyotda qo'llaydi, tahlil qiladi va natijani ijodiy tarzda ifodalaydi. Shuningdek, loyiha asosidagi o'qitish o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi, bu esa ta'limning kompetensiyaviy modeliga to'la mos keladi. Ilmiy-pedagogik manbalarda ta'kidlanishicha, loyiha asosidagi darslar nafaqat bilim berish vositasi, balki refleksiv fikrlashni rivojlantirish, mustaqil izlanish va tahlil ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmidir. Shu bois, ona tili darslarida loyiha ishlarini tashkil etish hozirgi ta'lim tizimida sifat va samaradorlikning kafolati sifatida baholanmoqda.

Asosiy qism. Avvalo, loyiha asosida o'qitishning ilmiy-nazariy mohiyatiga nazar tashlasak. Loyiha usuli – bu o'quvchilarning amaliy izlanishlari orqali ma'lum bir muammoni hal etishga qaratilgan faol o'qitish metodi bo'lib, u bilimni mustaqil egallash va uni real hayotda qo'llash imkonini yaratadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, loyiha metodidan foydalanish o'quvchining o'z ustida ishlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Tadqiqotchi M. Haydarqulova o'z izlanishlarida loyihaviy ta'limning mohiyatini “ta'lim oluvchini erkin fikrlashga, mustaqil qaror qabul qilishga va o'z faoliyatini ongli tarzda loyihalashga o'rgatuvchi tizim” sifatida izohlaydi. Bu yondashuvning markazida o'quvchining shaxsiy faolligi, muammoni hal qilishning ijodiy ishtiroki

va ijtimoiy mas’uliyati yotadi. V.V.Guzeyev ta’lim texnologiyalarini rejalashtirishda loyiha usulini “natijaga yo’naltirilgan didaktik model” sifatida talqin etadi. Bunda o’qituvchi – yo’lboshlovchi, o’quvchi esa faol izlanish subyekti sifatida ishtirok etadi. Shu tarzda tashkil etilgan darsda o’quvchi nafaqat o’rganadi, balki o’z tajribasi asosida bilimni qayta yaratadi, bu esa zamonaviy ta’lim paradigmasining asosiy talabi hisoblanadi.

Loyiha asosidagi o’qitishning boshlang‘ich ta’limda muhim ahamiyat kasb etishiga sabab shundaki, mazkur bosqichda bola tafakkuri va dunyoqarashi shakllanadi. Ona tili darslarida loyiha ishlari orqali o’quvchi matnni tahlil qilish, g’oyani anglash, nutqiy ifoda yaratish va ijodiy yondashuvni qo’llash imkoniyatiga ega bo’ladi. Shu jihatdan ushbu yondashuvdan ko’zlangan asosiy maqsadlar quyidagicha etib belgilanadi:

1. Mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirish. Loyiha darslarining asosiy maqsadi – o’quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, tanqidiy tahlil kabi yuqori darajadagi kognitiv ko’nikmalarni shakllantirishdir. Ona tili fanida bu matn tuzish, so’z birikmalaridan foydalanish, o’z fikrini og’zaki va yozma tarzda ifodalash ko’nikmalari orqali amalga oshadi. Misol uchun, 3-sinf “Ona tili” darsligining 2-qism “Gapning bosh bo’laklari” mavzulari so’ngida o’quvchilar “Men tadbirkorman” mavzusida yozma bayon yozish loyihasini bajaradilar. Yozish orqali ularning o’rganilgan bilimlari mustahkamlanadi; til ko’nikmalari nutq faoliyatiga aylanadi; o’quvchilar “faol o’rganuvchi subyekt”ga aylanadi.

2. Bilimlarni amaliyot bilan bog’lash. Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarida loyiha ishlari o’quvchilarning bilimini real hayotda qo’llashga o’rgatishga xizmat qiladi. Masalan, “Unli tovushlar va harflar” mavzusida o’quvchilarga lug’at tuzish yoki o’z so’z boyligini doskada ifodalash topshirig’i berilsa, bu ularning tilni o’rganishdagi motivatsiyasini oshiradi. Fikr faol tajriba asosida qurilishini inobatga olganda, loyiha asosidagi darslar bolaning fikrlash faoliyatini tabiiy shaklda rivojlantiradi.

3. Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish. Loyiha darslarida o’quvchilar guruhlarda ishlaydilar, o’z g’oyalarini muhokama qiladilar, taqdimot qiladilar – bu esa muloqot madaniyati va nutq ko’nikmalarini rivojlantiradi. Boshlang‘ich sinflarda bu jarayon nutq madaniyati, to’g’ri talaffuz, grammatik tuzilish, nutqiy ifoda boyligini shakllantirishda asosiy vosita bo’ladi.

4. Integrativ o’qitish va fanlararo bog’liqlikni ta’minlash. Ona tili darsidagi loyihalar aksar hollarda “Tasviriy san’at”, “Tabiiy fanlar”, “O’qish savodxonligi”, “Tarbiya” darslari bilan bog’lanadi. Bu o’quvchilarda fanlararo fikrlashni, ya’ni so’z – ma’no – hayotiy holat” uchligini anglashga o’rgatadi. Masalan, “His-hayajon gaplar” mavzusida o’quvchilar “O’qish savodxonligi” darsligidan darak, so’roq, buyruq va his-hayajon gapga misol topadilar – bu integrativ o’rganishdir. Ya’nikim, fanlararo loyihalar o’quvchilarda ko’nikmalarni uzviy tizim sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi.

5. Ijtimoiy-emotsional o’sish va mas’uliyatni shakllantirish. Loyiha darslarida o’quvchilarda o’z ishiga javobgarlik, jamoaviy hamkorlik, o’ziga ishonch, o’z natijasini himoya qilish malakalari rivojlanadi. Bu jihat kichik maktab yoshidagi

bolalar uchun emotsional ijobiy muhit yaratadi va ta‘limga qo‘llab-quvvatlashni kuchaytiradi.

6. O‘qituvchi uchun yangi rol: yo‘lboshchi va fasilitator. Mazkur darslarda o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi, kuzatuvchi, muhokamani boshqaruvchi, tahlilni tashkil etuvchi rolni bajaradi. Bu esa pedagogik jarayonni subyekt-subyekt munosabatiga aylantiradi - o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rganishning hamkor ishtirokchilaridir.

Zamonaviy tadqiqotlarda yuqoridagi maqsadlarni amalga oshirishda loyiha darslarining samaradorligi ularni to‘g‘ri ketma-ketlikda tashkil etish bilan bog‘liq ekanini ta‘kidlanadi. O‘z o‘rnida barchada “Qay tarzda loyiha darslari tashkil etilsa, loyihaga asoslangan o‘qitish dars samaradorligini belgilovchi asosiy omil sifatida o‘quvchilarni faollashtiradi: ularni o‘z ustida ishlashga, mustaqil va hamkorlikda fikrlashga yetaklaydi, natijani amaliy shaklga keltirish ko‘nikmasini rivojlantiradi?” kabi savol tug‘ilishi tabiiy hol, albatta. O‘rganishlarimizdan shu narsa aniq bo‘ldiki, boshlang‘ich sinflarda loyiha darslarini samarali tashkil etish – o‘qituvchining darsni to‘g‘ri rejalashtirish, o‘quvchini markazga qo‘yish, hamkorlik muhitini yaratish va ijodiy natijaga yo‘naltirish mahoratiga bog‘liq. To‘g‘ri tashkil etilgan loyiha darsi bilimlarni mustahkamlaydi, til ko‘nikmalarini rivojlantiradi, ijtimoiy va emotsional o‘rishni ta‘minlaydi, bolani faol, ishonchli va ijodkor shaxs sifatida shakllantiradi. Quyida maqsadga yo‘naltiruvchi darsni tashkil etishdagi zarur jihatlarni ko‘rib chiqamiz:

1. Maqsadni rejalashtirish va natijani aniq belgilash. Har bir loyiha darsi maqsadlar aniq, o‘lchangan, erishilgan, dolzarb va vaqt jihatdan chegaralangan bo‘lishi kerak. O‘qituvchi tomonidan dars boshida o‘quvchilarga bugun nimani o‘rganishlari, loyiha orqali nimalarni bilib olishlari, yakunda esa qanday natijaga erishishlarini tushuntiriladi. Masalan, “Undosh tovushlar va harflar” mavzusida loyihaning maqsadi o‘quvchilarning lug‘at boyligini kengaytirish va ularning ma’no farqlashga xizmat qilishini anglay olishga o‘rgatish bo‘lishi mumkin.

2. Loyiha darsining tuzilmasi. Loyiha darsi quyidagi 5 bosqichda tashkil etilsa, eng samarali bo‘ladi:

T/r	Bosqich	Mazmun	O‘qituvchi roli
1	Muammo yoki mavzuni aniqlash	O‘quvchilar bilan birgalikda muhokama orqali loyiha mavzusi belgilanadi	Yo‘naltiruvchi, ilhom beruvchi
2	Reja tuzish	Guruhlar yoki juftlikda loyiha bosqichi belgilanadi	Tashkilotchi, maslahat beruvchi
3	Axborot to‘plash	O‘quvchilar kitob, internet yoki kuzatuv asosida ma’lumot yig‘adi	Maslahatchi, nazoratchi
4	Natijani taqdim etish	O‘quvchilar o‘z ishlari (hikoya, rasm, lug‘at, ma’lumotlar)ni taqdim etadi	Baholovchi, qo‘llab-quvvatlovchi
5	Tahlil va refleksiya	O‘quvchilar o‘z faoliyati haqida fikr bildiradi, o‘z-o‘zini baholaydi	Fasilitator, rag‘batlantiruvchi

3. Faol o‘quvchini markazga qo‘yish. Samarali loyiha darsida o‘quvchi asosiy subyekt bo‘ladi. O‘qituvchi emas, o‘quvchi muammoni aniqlaydi, yechim taklif qiladi, ijodiy mahsulot yaratadi, xulosaga keladi. Bu jarayon o‘quvchilarda “men o‘zim qildim” degan ichki motivatsiyani uyg‘otadi. Bu esa o‘z navbatida o‘zi faol ishtirok etgan yangi bilimning chuqur o‘zlashtirilishiga olib keladi.

4. Hamkorlikda o‘rganish. Eng samarali loyiha darslari guruhli ish shaklida o‘tadi. Masalan, 5-6 nafar o‘quvchi bitta kichik loyihada ishlaydi; har biri alohida rol bajaradi; yakunda esa jamoa sifatida natija taqdim etadi. Bu tarzda guruhli loyiha ishlari o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshiradi.

5. Yaratuvchanlik. Loyiha darslari shunchaki ma‘lumot yig‘ish emas – ijodiy mahsulot yaratish jarayonidir. O‘quvchilar ertak, so‘zlar to‘plami jamlangan kichik kitobcha, plakat, rol o‘ynash orqali, rasmi hikoya shaklida yakuniy natija taqdim etishlari mumkin. Bu usullarni qo‘llash natijasida bolalarda verbal va vizual fikrlashni uyg‘un rivojlantirishga erishiladi.

6. Baholash va refleksiya tizimi. Samarali loyiha darsining yana bir asosi – ko‘p darajali baholash bo‘lib, o‘quvchilar dars oxirida “Menga eng yoqqan narsa ...”, “Men yana o‘rganmoqchiman...” kabi savollarga javob yozishadi. Baholash quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- o‘qituvchining bahosi;
- guruh a‘zolarining bahosi;
- o‘quvchining o‘zini-o‘zi baholashi.

Shuningdek, ona tili darslarida loyiha ishlarini tashkil etishda o‘qituvchilarning loyihaviy faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish hamda dars jarayonini vektor-modulli model asosida qurish muhim hisoblanadi.

Xulosa. Loyihaviy o‘qitishning psixologik va pedagogik tahlili shuni ko‘rsatdiki, bu yondashuv o‘quvchi shaxsida refleksiv tafakkur, kritik tahlil, axborot bilan ishlash va ijodiy yechim ishlab chiqish qobiliyatlarini shakllantiradi. Boshlang‘ich ta‘limda, ayniqsa, ona tili fanida loyiha asosidagi darslarni tashkil etish – bu zamonaviy pedagogik tafakkur va kompetensiyaviy yondashuvning muhim amaliy ko‘rinishidir. Loyiha darslari o‘quvchining faqat bilim egallash faoliyatini emas, balki uning tafakkurini, ijodiy saohiyatini, mustaqil qaror qabul qilish va muloqotga kirishish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu jihatdan loyiha metodining ahamiyati faqat didaktik vosita bo‘lib qolmay, shaxsni har tomonlama rivojlantiruvchi, ta‘limni ijtimoiy faoliyat sifatida talqin etilganda, o‘quvchini ijtimoiy hamkorlik muhiti orqali bilim olishga undovchi mexanizm sifatida qaraladi. Umuman olganda, loyiha asosidagi o‘qitishni boshlang‘ich ta‘lim ona tili darslarining tarkibiy qismiga aylantirish ta‘lim sifatini oshirish, o‘quvchilarni kelajak hayotga tayyorlash, milliy ta‘lim tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirishning samarali yo‘lidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boynazarova D. Ona tili 3-sinf – Toshkent: Novda edutainment, 2023. – 88 b.
2. Guzeyev V.V. Ta‘lim natijalarini va ta‘lim texnologiyasini rejalashtirish. / Moskva: Xalq ta‘limi, 2000. B: 198.

3. Hamroyev A.R. Hamroyev A.R. Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta‘limini ijodiy faoliyatini loyihalashtirish: ped. fan. dok. diss. BuxDU. – T., 2020. – 248 b.
4. Haydarqulova M.Z. Boshlang‘ich ta‘limda loyihalash ta‘lim tamoyilidan foydalanish. // “Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: nazariya va amaliyot” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya, 2024. B: 109 – 112.
5. Mahmudov M.H., Ne‘matova F.B. Boshlang‘ich ta‘limni loyihalash: muammo va yechimlar. // Zamonaviy fan va ta‘lim-tarbiya: muammo, yechim, natija. B: 9–11.
6. Mirzoxidova L.B. Kichik sinf o‘quvchilarining universal hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirishda loyiha ishlarining ahamiyati. // O‘zMU xabarleri, Toshkent, 2024-yil. B: 158-161.
7. Mirzoxidova L.B. Boshlang‘ich sinflarda loyiha ishlarini tashkil etish orqali o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish. // Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnali. – Toshkent: 2024. №7. B: 333 – 339.
8. Mirzoxidova L.B., Turgunbayeva T. A. Boshlang‘ich sinflarda loyiha ishlarini tashkil etish. // International scientific and practical conference “modern approaches in teaching exact and natural sciences: challenges and solutions” 2025-yil. B: 755 – 761.
9. Qosimova K., Matchonov S. va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Bayoz, 2022.
10. Rahmonov Sh.A., Tojiyeva X.B. Ona tili darslarida “Loyiha ishi”larning amaliy ahamiyati. // Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2024. B: 119 – 120.